FRILANSERLIK NIMA UCHUN HAYOTIY ZARURAT

1. "Diplom bor, lekin tajriba yo‘q" muammosiga barham berish

Bugungi kunda aksariyat kompaniyalar ishga qabul qilishda kamida 1–2 yillik real ish tajribasini talab qiladi. O‘quvchi o‘qish davomida (masalan, "Mobil qurilmalarning dasturiy ta’minoti" fani doirasida) Kwork yoki Upwork kabi saytlarda real mijozlarning kichik buyurtmalarini bajaradi. Bitirish arafasida unda nafaqat diplom, balki 20-30 ta bajarilgan ishdan iborat real ishlar jamlanmasi tayyor bo‘ladi.

2. Nazariyani real bozor talablari bilan sinovdan o‘tkazish

Frilans birjalariga kirgan o‘quvchi bugungi kunda bozorga qanday mobil ilovalar, qaysi dasturlash tillari (Python, JavaScript, PHP) yoki qanday xavfsizlik tizimlari kerakligini anglaydi. Bu unda fanga nisbatan passiv yondashuvni yo‘qotib, mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan ichki ehtiyojni uyg‘otadi.

3. Erkin grafik va o‘qishni hamohang olib borish

Frilanserlikning asosiy qoidasi — erkin grafik. O‘quvchi darslaridan so‘ng, o‘zi istagan vaqtda va o‘zi xohlagan joyda (uyda, yotoqxonada yoki kutubxonada) turib buyurtmalarni bajarishi mumkin. Bu o‘qish sifatiga mutlaqo zarar yetkazmaydi.

4. O‘zini o‘zi band qilish va rasmiy mehnat stajiga ega bo‘lish

O‘zbekistonda yoshlar bandligini ta’minlash va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Frilans bilan shug‘ullanuvchi o‘quvchilar "O‘zini o‘zi band qilgan shaxs" sifatida Soliq ilovasi orqali bepul 0% soliq to‘lash sharti bilan ro‘yxatdan o‘tsalarda ularga rasmiy ish staji yoziladi. Bu yoshlarning ijtimoiy himoyasini ta'minlaydi.

5. Hayotiy ko‘nikmalarni ("Soft Skills") shakllantirish. Frilanserlik o‘quvchida moliyaviy savodxonlik, mas’uliyat kabi hayotiy ko‘nikmalarni tabiiy ravishda shakllantiradi:

Kasbiy ta’lim tashkiloti o‘quvchisi uchun frilanserlik — bu ta’limdan ishlab chiqarishga o‘tishdagi "xavfsiz ko‘prik"dir. U talabani boqimandalik kayfiyatidan qutqarib, mustaqil fikrlaydigan, o‘z mehnati bilan daromad topadigan va mamlakat iqtisodiyotiga hissa qo‘shadigan yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishini ta’minlaydi.